

Anbar Otinning pedagogik-falsafiy g'oyalari

Gulbahor Qodirjon-qizi Sultonova

Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur ma'rifatparvar shoira Anbar Otinning falsafiy pedagogik qarashlari keng tahlil qilinadi. Unda mutafakkiraning yosh avlod tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolot hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga doir fikrlari yoritiladi. Shuningdek, sharq allomalarining pedagogik-falsafiy g'oyalar bilan Anbar Otin qarashlari o'rtasidagi mushtarak jihatlar ochib berilib, ularning umumiy ma'naviy ildizlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, tarbiya, ayollar savodxonligi, pedagogik qarashlar, ma'naviyat, oila tarbiyasi, shaxs kamoloti, odob-axloq

Anbar Atin's Pedagogical and Philosophical Ideas

Gulbahor Kadirjon-kizi Sultanova

Scientific Advisor: M.M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the philosophical and pedagogical views of the famous enlightener poet Anbar Atin. It highlights the thinker's views on the upbringing of the younger generation, spiritual and moral development, and improving the educational process. It also reveals the common aspects between the pedagogical and philosophical ideas of Eastern scholars and Anbar Atin's views, and analyzes their common spiritual roots.

Keywords: enlightenment, education, women's literacy, pedagogical views, spirituality, family upbringing, personal development, morality

"Ilm-insonni zulmatdan nur sari yetaklovchi eng buyuk ne'matdir". Anbar Otin.

XIX asr o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotida ayol ijodkorlar orasida alohida mavqega ega bo'lgan Anbar Otin Farmonqul qizi (1870-yil Qo'qon - 1915-yil)-o'zbek shoirasi. Otasi Uvaysiyning jiyani, onasi esa Ashurbibi kosib qizi bo'lgan. U dastlab Dilshod otin maktabida tahsil olgan. Dilshod otin o'z davrining shoirtabiat, bilimdon, dono ayollaridan bo'lib, Barno taxallusi bilan she'rlar yozgan. U Anbarning she'riyatga qiziqishini ko'rib, uni mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishtirgan. Anbar otin Farmonqul qizi she'riyatda ijod qilish bilan birgalikda o'z

mahallasidagi yosh qizlarga ta'lim berganligi tufayli Otin nomi bilan tanilgan. U o'z ijodini o'zbek va tojik tillarida olib borgan. Navoiyni birinchi ustoz deb bilgan va ijodda Uvaysiyga ergashgan. Anbar otin nafaqat iste'dodli shoir, balki chuqur ijtimoiy va pedagogik fikr sohibasi hamdir. Uning pedagogik qarashlari nafaqat o'z davri balki bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Mutafakkira o'z asarlarida inson kamolotining asosiy omili sifatida tarbiyani e'tirof etadi. U ilm, axloq va ma'naviyat uyg'unligi shaxs kamolotining poydevori deb biladi. Ayniqsa, ayollar savodxonligi, oila muhitining tarbiyadagi o'rni hamda komil insonni shakllantirish g'oyalari uning pedagogik merosida muhim o'rin egallaydi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlarni asrash va barkamol avlodni shakllantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan Anbar Otinining pedagogik qarashlarini o'rganish zamonaviy pedagogika uchun muhim ilmiy-nazariy manba hisoblanadi.

“Tarbiyaning ildizi oilada, mevasi esa jamiyat kamolotida namoyon bo'ladi”.

Anbar Otinining pedagogik qarashlarida tarbiya masalasi markaziy o'rin tutadi. Mutafakkira insonning jamiyatdagi o'rni, uning ma'naviy qiyofasi va axloqiy fazilatlarini bevosita tarbiya bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash jamiyat tarqaqiyotining asosiy sharti deya e'tirof etiladi. Tarbiyani faqar bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ma'naviy va axloqiy kamolotini ta'minlovchi murakkab pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi. Bu qarashlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Anbar Otin oila muhitini shaxs tarbiyasining asosiy maktabi deb hisoblaydi. Uning fikricha, farzandning axloqiy fazilatlarini, dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlari avvalo oilada shakllanadi. Mutafakkira ayniqsa onaning tarbiyadagi o'rnini, bilimli va ma'rifatli ona jamiyat uchun yetuk avlodni tarbiyalay olishini ta'kidlaydi.

“Ilmli va ma'rifatli ayol jamiyatning ma'naviy ustunidir”.

Anbar Otin ayollar savodxonligi masalasiga katta e'tibor qaratgan. U ayolning ma'rifatli bo'lishi nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat tarqaqiyotining muhim omili ekanligini qayta va qayta ta'kidlaydi. U ayollarning ilm olishiga to'sqinlik qiluvchi stereotiplarga qarshi chiqib, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu qarashlar uning pedagogik merosining progressiv jihatlaridan biridir. Shoir o'z davrida ayollar savodxonligini oshirish g'oyasini ilgari surish orqali ijtimoiy ongni yuksaltirishni maqsad qilgan. U ayolning ma'rifatli bo'lishi jamiyatda adolat, hamjihatlik va ma'naviy poklikning mustahkamlanishiga xizmat qilishini ko'p bora ta'kidlab o'tadi. Ilmli ayol o'z huquq va burchlarini anglaydi, farzandlarini ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalay oladi. Anbar Otin talqinida ma'rifatli ayol-kelajak poydevorini quruvchi kuchdir.

“Komil insonni tarbiyalash-har bir jamiyatning eng oliy vazifasidir.”

Anbar Otinning komil inson g'oyasi haqidagi pedagogik qarashlarida, u inson kamolotini faqat ilm bilan emas, balki axloqiy poklik, halollik, sabr-toqat, mehr - shavqat va odob bilan bog'laydi. Mutaqaddir tarbiyada milliy an'analar, diniy-axloqiy qadriyatlar va insonparvarlik g'oyalarini uyg'unlashtirish zarurligini ilgari suradi. Shoir komillikni ma'rifat bilan chambarchas bag'laydi. U ilmni insonni jaholatdan qutqaruvchi, qalbni poklovchi va tafakkurni yuksaltiruvchi kuch sifatida ko'radi. Shu bois shoir yoshlarni faqat bilim olishga emas, balki bilimni to'g'ri qo'llashga, uni ezgulik yo'lida xizmat qildirishga undaydi. Uning qarashlarida komil inson- o'z bilimni jamiyat manfaatiga yo'naltira olgan shaxsdir. Anbar Otin komil insonni tarbiyalashda avvalo o'zligini tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi. Uning qarashlarida, inson komillika tayyor holatda tug'ilmaydi, balki uzluksiz ma'naviy izlanish, sabr va hayotiy tajriba orqali kamol topadi. Bu jarayonda insonning o'z xatti - harakatlarini tahlil qilishi, xatolaridan xulosa chiqarishi maqsad sari intilishi muhim ahamiyatga ega.

Anbar Otinning pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tamoyillari bilan uyg'unidir. Uning shaxs kamoloti, axloqiy tarbiy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan g'oyalari zamonaviy pedagogika yondashuvlarida ham muhim o'rin tutadi. Masalan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli har bir o'quvchining qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi, bu esa mutafakkiraning shaxsni individual rivojlantirish haqidagi qarashlari bilan mos keladi. Shuningdek, bugungi ta'lim tizimida oila va maktab hamkorligiga e'tibor qaratilishi Anbar Otinning oila muhitining tarbiyadagi o'rni haqidagi fikrlarini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ayollar ta'limiga keng imkoniyatlar yaratilishi shoiraning ayollar ma'rifati haqidagi g'oyalarining amaliy ifodasi hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytganda Anbar Otinning pedagogik qarashlari ma'rifatparvarlik ruhiga asoslangan bo'lib, unda yoshlar tarbiyasi, ayollar savodxonligi, komil inson g'oyasi va oila muhitining ahamiyati yetakchi o'rin tutadi. Mutaqaddiraning pedagogik merosi bugungi ta'lim tizimi uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi hamda yoshlarni ma'naviy barkamollikka yetaklashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shoiraning pedagogik qarashlarida adabiyotning tarbiyaviy qudrati ham alohida o'rin egallaydi. U badiiy ijod orqali ma'naviy- axloqiy qadriyatlarni targ'ib etib, yoshlarning estetik didi va ijtimoiy ongini shakllantirishga xizmat qilgan. Bu jihat Anbar Otin merosining didaktik va ma'naviy ahamiyatini yanada oshiradi. Umumiy olganda shoiraning pedagogik fikrlari insonni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etish hamda tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni ustuvor qo'yish g'oyalariga asoslanadi. Shu sababli uning pedagogik merosi nafaqat tarixiy qadriyat,

balki zamonaviy pedagogika uchun ham muhim metodologik manba sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anbar Otin. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'ofur G'ulom, 1988
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариёв, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.

14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. Science and Education, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. Science and Education, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.
25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.
26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.
27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 5(3), 15-17.